



TURKISTONDA JADIDCHILIK FAOLIYATI

Yusupova Laylo

Guliston davlat universiteti

*Psixologiya va ijtimoiy fanlar
fakulteti 4-bosqich talabasi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada XX asr boshlarida Chor Rossiyasi hukmronligi ostidagi Turkiston o'lkasida jadidchilik harakatining vujudga kelishi, sabablari, ularning faoliyati, ma'rifatparvarlarining milliy matbuot, maktab, teatrga qo'shgan hissalarini, ularning faoliyatining asosiy maqsadlari qisqacha yoritilishga harakat qilingan.

Kalit so'zlar: Jadidlar, milliy matbuot, Ismoil Gaspirali, teatr, "usuli jadid", Behbudiy, Munavvar qori.

Jadidchilik harakati Turkiston o'lkasida XIX asr oxirida vujudga kelgan, XX asr boshlarida shakllangan va ijtimoiy hayotning barcha jabhalarini qamrab olgan. U qisqa vaqt ichida sezilarli ta'sir ko'rsatgan milliy taraqqiyot harakati sifatida namoyon bo'ldi. Islom Karimov ta'kidlaganlaridek, "Jamiyat taraqqiyotining asosi, uni muqarrar halokatdan qutqarib qoladigan yagona kuch - ma'rifatdir" [1: 135]. Jadidlar ham o'z faoliyatlari davomida asosiy e'liborni o'lkada ilm-ma'rifat g'oyalari keng yoyilishiga qaratishgan. Jadidchilik harakati Turkistonning ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotida misli ko'rilmagan o'zgarishlarga sabab bo'ldi. Jadidchilikning asosiy maqsad va g'oyalari Turkistonni o'rta asr g'oyalariidan biri bo'lgan feodal sadoqat va antik davrdagi xurofotlardan tozalash, mamlakat va xalqning yangi davrga moslashishini ta'minlash, milliy majlis va deputatlardan tashkil topgan davlat, milliy valyutani qabul qilish, o'lkada yangi usul maktablarini, milliy teatr, adabiyot va matbuotni vujudga keltirishdan iborat edi. Bu farovonlikni ta'minlash va davlatni boshqaruvchilarning jamiyatni ozod qilish va boyitish siyosatini yaratishini ta'minlash uchun kiritilgan yangiliklarning umumiy nomi – jadidchilik deb atalgan. Ismoil Gaspirinskiy ta'sirida yuzaga kelgan bu harakatning mamlakatda shakllanishi va keng tarqalishida turkistonlik ziyoli va muftiy Mahmud Xoja Behbudiy asosiy rol o'ynadi. Bugungi kunda barcha sohalarda juda katta o'zgarishlar amalga oshirilayotgan bir davrda tarixni haqqoniy o'rganish imkoniyati yaratilib, jadidlar merosini keng qamrovli o'rganish imkoniyati yaratildi. Oxirgi yillarda yurtimizda jadidlar, ularning faoliyatini o'rganishga alohida e'tibor berilmoqda. Bu hatto, 2022-2026 yillarga mo'ljallangan harakatlar strategiyasida ham o'z aksini topdi. Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek: "Biz jadidchilik harakati, ma'rifatparvar bobolarimiz merosini chuqur o'rganishimiz kerak. Bu ma'naviy xazinani qancha ko'p o'rgansak, bugungi kunda ham bizni tashvishga solayotgan juda ko'p savollarga javob topamiz. Bu bebaho boylikni qancha faol targ'ib etsak, xalqimiz ayniqsa, yoshlarimiz bugungi tinch va erkin hayotning qadrini anglab yetadi" [2: 3]. Ushbu maqola umumiy qabul qilingan tarixiy metodlar- tarixiylik,



obyektivlik, ketma-ketlik, izchillik, xolislik, qiyosiy-mantiqiy tahlil qilish, solishtirish kabi tamoyillarga asosan yoritilgan. Turkistondagi jadidchilik faoliyatini o‘rganish bilan chet ellarda nisbatan oldinroq shug‘ullana boshladilar. Bu sohada amerikalik E.Olvort, E.Lazzerini ishlari ma'lum. Ayniqsa, XX asrning 80- yillaridan keyin turkiyalik Nodir Davlat, Ahad Andijon, yaponiyalik Xisao Komatsu, nemis tadqiqotchisi Ingeborg Baldauf, amerikalik Adib Xolid kabi olimlarning asarlari mavjud. Jadidchilikni o‘rganishda o‘zbekistonlik olimlardan B.Qosimov, S.Xolboev, Sh.Rizaev, B.Do‘stqoraev, Xasanov B., Alimova D., Karimov N. kabilar o‘rganib, shu to‘g‘risida ko‘plab asarlar, maqolalar chop etishdi. Jumladan, Jadid ziyolilarining asarlari “Tanlangan asarlar” rukni ostida nashrdan chiqarildi.

Turkiston o‘lkasida XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab shakllana boshlagan ma’rifatchilik faoliyati XX asr boshlarida jadidchilik harakatining yuzaga kelishiga asos bo‘ldi. “Jadid” atamasi arabcha “yangi” ma’nosini anglatadi. Ma’rifatchilar adabiyotni jaholatga qarshi kurashish vositasiga aylantirgan bo‘lsa, jadidlar ham badiiy adabiyotni xalqni g‘aflat va mustamlaka zulmidan qutqarish quroliga aylantirdilar. XIX asr oxirlariga kelib siyosiy, iqtisodiy, madaniy jihatdan inqirozga uchrab qolgan Turkistonni mustamlakachilik zulmidan qutqarish, o‘zlarining milliy davlatini tuzish, xalqqa ziyo ulashish, ularni savodli qilishni o‘z oldilariga maqsad qilib qo‘ygan bir

qancha ziyolilar o‘rtaga chiqa boshladi. Turkistonda jadidchilik harakati o‘z-o‘zidan paydo bo‘lib qolgani yo‘q. Harakatning vujudga kelishiga ma’lum bir obyektiv sabablar turtki bo‘lgan. Avvalo, Chor hukumatida vujudga kelgan qulay siyosiy vaziyat bunga asosiy sabab bo‘ldi. (1905-1907 yillarda bo‘lgan inqilob) Bundan tashqari, XIX asrning o‘rtasi va XX asrning boshida jamiyatda yangilanish zarurati tug‘ildi. Bir qancha siyosiy, ijtimoiy, huquqiy va madaniy muammolar paydo bo‘ldi. Xalq orasida ushbu muammolarni hal etishni o‘z oldilariga maqsad qilib olgan bir guruh ziyolilar paydo bo‘ldi. Jadidchilik harakatining asoschisi Ismoil Gaspirinskiy (1851-1914) edi. Gaspirinskiyning rus va turkiy tillarda 1888-yildan 1914-yillar davomida chop etilgan "Tarjimon" gazetasi, 1881-yilda chop etilgan "Rossiya musulmonligi", 1885-yil chop etilgan "Ovropa madaniyatiga bir nazar muvozi" va boshqa asarlari hamda jadid maktablari uchun yozilgan darsliklar va qo‘llanmalari Turkistonga tez kirib kelib, Turkistonlik ma’rifatparvarlar orasida keng tarqaldi. [3: 526]. Turkistonda ta’lim tizimini reforma qilish talabi bilan boshlangan jadidchilik harakatining vujudga kelishida Ismoil Gaspiralining Qirimda tashkil etgan Usuli jadid maktablarining katta ta’siri bo‘lgan. Ismoil Gaspirinskiy 1884-yilda 12 ta bolani "usuli jadid" (yangicha usul) tovush usuli bilan o‘qitib, 40 kunda savodini chiqaradi. [4:105].

Turkiston o‘lkasida jadidchilik harakatining rahbarlari bo‘lgan Mahmudxo‘ja Behbudiy va Munavvar qori Abdurashidxonov, Xivada Polvoniyoz Yusupov,



Buxoroda Abdurauf Fitrat va Fayzulla Xo'jayevlar rahbarlik qilishgan. Turkiston jadidchilari o'zlarining siyosiy faoliyatini 1900- yillardan boshlab olib borganlar. Ishni XIX asrning 90-yillarida yangi usul maktablari tashkil qilishdan boshlagan jadidlar oradan ko'p o'tmay, Turkistonda demokratik mustaqil davlat tuzishni rejalashtira boshladilar. 1917-yilda Turkiston muxtoriyatining vujudga kelishi shu rejaning amalga oshirilishi yo'lidagi jiddiy urinish edi. Bu haqida Fitrat "Hurriyat" gazetasining 1917-yil 5-dekabr sonida e'lon qilgan "Muxtoriyat" maqolasida: "... Turkistonning tarixi xonbaliqlarida (poytaxtlaridan) ikkinchisi bo'lg'an Xo'qand shahrinda to'plangan Turkiston quriltoyi 27-noyabrning (milliy laylatulqadrimiz bo'lg'an) yarim kechasinda Turkiston muxtoriyatini e'lon qildi [5]", - deb yozadi.

Jadidlar o'lkada maktab, maorif ishlarini rivojlantirish, milliy adabiyot, teatr va matbuotning vujudga kelishida ko'plab ishlarni amalga oshirishgan. Masalan, Abdulla Qodiriyning birinchi o'zbek romanchiligiga asos solishi ("O'tkan Kunlar"); Abdulla Avloniyning teatr truppasini tashkil etishi ("Turon"); Ismoil Obidovning birinchi o'zbek gazetasini ("Taraqqiy") va

Mahmudxo'ja Behbudiyning birinchi milliy jurnalga ("Oyina") asos solganliklarini misol qilib keltirishimiz mumkin. Jadidchilikning siyosiy- ijtimoiy sohada amalga oshirgan islohotlaridan yana biri asrimiz boshlarida vujudga kelgan milliy dramaturgiya edi. Ma'rifatparvar dramaturglar o'z oldilariga millatni ilma'rifatga yetaklash vazifasini qo'yishganligi uchun o'z asarlarida ma'rifatparvarlik g'oyalarini ilgari surishgan. Bundan tashqari ular yana XX asr boshlarida Turkistonning turli burchaklarida ochilayotgan va faoliyat ko'rsatayotgan «usuli jadid» maktablari uchun mablag` ishlab, «Jamiyati xayriya» yoki «vaqflar» orqali shu maktab va maorif maskanlari uchun darsliklar, o'quv qo'llanmalari yaratish, o'quv jihozlari bilan ta'minlash, iqtidorli yoshlarni taraqqiy etgan mamlakatlarga (ko'proq Turkiya, Olmoniya va Markaziy Rusiyaga) o'qishga yuborish vazifasini qo'ydilar.[6: 27].

Jadidchilikning yana bir muhim faoliyati matbuotchilik va Jurnalistika bilan bog'liq. Turkiston jadidlari Rus hukumatida sodir bo'lgan inqilobiy harakatlardan samarali foydalanib, milliy matbuotni yaratishga harakat qildilar. Buyuk ma'rifatparvarlar jadid matbuoti orqali millatni o'z madaniy-iqtisodiy ahvolini, siyosiy huquqsizligini anglatishni, milliy nashrlar orqali bosqinchilarga qarshi nafrat, milliy istiqbolga ishonch ruhini uyg'otishni maqsad qilib qo'yadi. Shu bilan birgalikda ular aynan milliy nashrlar orqali milliy muxtoriyat, millatlararo tenglik g'oyasini targ'ib qilishni yo'lga qo'ydilar. Turkiston jadidlari dastlab Rossiya, Qrim, keyinchalik esa Qozon va Kavkazda nashr etilgan gazetalarni kuzatib bordi. So'ngra ular o'zlarining milliy matbuotini yaratishni boshladilar. 1905-yilgi manifestdan keyin Turkiston



o'lkasida gazetalar soni ko'paya boshladi. Bu sanadan keyin jadidlarning milliy matbuoti ham vujudga keldi. Turkistondagi ilk milliy gazeta 1906-yil 14-iyun (yangi hisobda 27-iyun) kuni tatar taraqqiyparvari Ismoil Obidiy muharrirligi ostida chop etilgan "Taraqqiy" gazetasi hisoblanadi [7]. Bu gazeta o'zining nomiga momand millatni xalqni taraqqiy etishi uchun o'z hissasini qo'sha olgan. Xususan, gazetaning birinchi nashrida gazetaning nomi quyidagicha izohlanadi: "Gazetamiz "Taraqqiy" nomida bo'lib bora-bora jismi xam ismiga muvofiq o'lub millatimizni "keyin" bormog'iga aslo rozi emasdurimiz. Baqadri imkon millati islomni oliy darajada o'lmog'iga va millati islomdagi tijorat, kasb va korning ortmog'iga yo'l izlab ijthod qilur"[8]. Jadidlar tomonidan tashkil etilgangazeta va jurnallarda tomoshalardan yig'ilayot-gan mablag'lar qanday maqsadlarda sarf etilayotgani haqida ham ma'lumotlar berib boriladi. Xususan,

«Oyina» jurnalining 21-sonida samarqandlik teatr havaskorlarining Qo'qon shahrida «usuli jadid» maktabi foydasiga «Padarkush» dramasining namoyish etilgani xususida axborot beriladi va teatr mudiri Akobir Mansuriyning ushbu namoyishdan yig'ilgan mablag' hisoboti bosiladi [6: 27].

Birinchi Prezidentimiz Islom Abdug'aniyevich Karimovning: "Tarixiy xotira - xalqning, jonajon o'lkaning, davlatimiz hududining xolis va haqqoniy tarixini tiklash milliy o'zlikni anglashni, ta'bir joiz bo'lsa, milliy iftixorni tiklashva o'stirish jarayonida g'oyat muhim o'rin tutadi [9:140b.]", - degan so'zlari orqali o'tmishni o'rganish nafaqat bugungi kun, balki kelajak rivoji uchun o'ta muhim ekanligini ko'rsatadi. Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, Turkistonda vujudga kelgan jadidlik harakatining asosiy maqsadi: jamiyat rivojlanishi uchun kerak bo'lgan barcha sohalarda yangiliklar joriy qilish edi. Bu orqali jadidlar aholining yashash tarzini o'zgartirish, ularning dunyoqarashini o'stirish, bo'layotgan voqealarga befarq bo'lmasliklariga erishishni asosiy maqsadlaridan biriga aylantirishgan. Jadidlar Turkistonni milliy rivojlanishida jamiyatning siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy taraqqiyotini ta'minlash g'oyasini olib chiqdi. Ularning siyosiy faoliyatida mustaqillik g'oyalari ilgari surdi. Buni biz jadid ma'rifatparvarlarining Chor Rossiyasi tajovuziga qarshi qaratilgan kurashlari misolida ko'rishimiz mumkin. Jadidlar Turkiston o'lkasini milliy rivojlantirish yo'li bilan qaramlikka qarshi kurashmoq lozimligini angladi va buning uchun bir qancha islohotlarni amalga oshirganlar. Shuning uchun ham jadidlar o'z faoliyatlari davomida mazlum xalqni ozodlik uchun kurashishga chorlaydilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. I. Karimov. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. 7-jild
2. Abdurashidov Z. Jadidlar. Mahmudxo'ja Behbudiy [Matn]: risola.– Toshkent: Yoshlarnashriyot uyi, 2022.
3. Ilhomov Z.A. O'zbekiston tarixi. O'quv qo'llanma. - Toshkent: "Innovatsiya-



Ziyo", 2022.

4. O'zbekiston tarixi: yangi nigoh. Jadidlar harakatidan milliy mustaqillikka qadar. T., "Eldimur", 1998
5. Jadid adabiy, ilmiy-ma'rifiy va ijtimoiy haftalik gazeta. 2024-yil 16-fevral 8-son
6. Sharipov Rustam. Turkiston jadidchilik harakati tarixidan. TOSHKENT «O'QITUVCHI» 2002.
7. <https://oyina.uz/uz/article/907>
8. Taraqqiy", 1906 yil, 1-son, 3-bet.
9. I.Karimov. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavf sizlikka taxdid, barqarorlik shartlari va tarakkist kafolatlari. T., «O'zbekiston», 1997.
10. Shokhista, R. (2023). The Significance Of Emphasizing Communicative Competence As The Foundation For Teaching Listening And Speaking Skills Rustamova Shokhista Sharifovna. International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research, 25-28.
11. Rustamova, S. S. (2023, January). The Importance Of Speaking Activities In Teaching English. In International Conferences (Vol. 1, No. 1, pp. 357-361).
12. Sharifovna, R. S. (2022). Teaching Spoken English To Upper Class Pupils. Confrencea, 6(6), 87-89.
13. Sharifovna, R. S. (2022). Class Size And The Learning-Teaching Process In Upper Classes. Journal of new century innovations, 14(1), 86-98.
14. Sharipovna, R. S. Peculiarities Of Teaching English In Secondary Schools In Uzbekistan. International Journal of Innovations in Engineering Research and Technology, (2), 1-5.
15. Suleymanova, N. M. (2020). On The Nominative Nature Of The Sentence. Theoretical & Applied Science, (4), 307-309.
16. Сулейманова, Н. М. (2017). Номинативный аспект речевого процесса. In Humanities and Social Sciences in Europe: Achievements and Perspectives (pp. 76-82).
17. Suleymanova, N. M., & Idiyev, A. R. O. G. L. (2021). Gapping Nominativ Aspekti Va Uning Kommunikativ Jarayoni Haqida. Academic research in educational sciences, 2(12), 805-809.
18. Сулейманова, Н. М., & Абдуллаева, Л. Т. (2017). Имманентный характер синергетических свойств единиц языковой системы. In Инновации В Современном Языковом Образовании (pp. 61-65).
19. Ikrambayevna, S. D. (2024). Classification of Functions of Communicative Strategy and Tactics in Political Communication. Miasto Przyszłości, 50, 548-553.
20. Sattarova, D. (2024). Siyosiy Muloqotning Pragmatik Aspektlari. Tamaddun Nuri Jurnalı, 5(56), 380-383.